



ILG'OR PEDAGOG

ILMIY JURNALI

INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



2025

Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



ILG'OR PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

2- JILD, 3 - SON
2025



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Urmonova Dilfuza Mamasalievna

Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi, PhD

+998979907409

ORCID NO: 0000-0001-7356-1560

urmonova.dilfuza@mail.ru

Annotatsiya: Bugungi kunda umumta'lim maktabi o'quvchilarining til va nutqqa doir ilmiy-nazariy bilim, amaliy malaka hamda ko'nikmalarini izchil, uzviy, mukammal, ijodiy, mustaqil o'zlashtirishga yo'naltiruvchi, muayyan tartib hamda qoidalarga asoslangan tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini yaratish, takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, ona tili va adabiyot darslari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish turli, jumladan, nutqiy, kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish, savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlashini o'stirishga yo'naltiriladi. Maqolada ona tili va adabiyot darslarida ta'lim oluvchilarning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan o'quv topshiriqlari bilan ishlashga doir metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari, mustaqil ijodiy izlanish, kreativ, tanqidiy, analitik va mantiqiy fikrlash, fikrlash turlari, lingvistik kompetensiya.

Аннотация: Известно, что уроки повторения и закрепления направлены на совершенствование творческих способностей учащихся с различными, в том числе речевыми, коммуникативными и лингвистическими компетенциями, повышение грамотности, развитие самостоятельного мышления. В статье даются методические рекомендации по работе с учебными заданиями, направленными на развитие мышления учащихся на уроках родного языка и литературы.

Ключевые слова: учебные задания, развивающие мышление, самостоятельный творческий поиск, творческое, критическое, аналитическое и логическое мышление, типы мышления, лингвистическая компетентность.

Abstract: It is known that the lessons of repetition and strengthening are aimed at improving the creative abilities of students with a variety, including speech, communicative and linguistic competencies, improving literacy, growing independent thinking. The article provides methodological recommendations for working with educational tasks aimed at developing the thinking of learners in repetition and reinforcement lessons.

Keywords: educational tasks that develop thinking, independent creative search, creative, critical, analytical and logical thinking, types of thinking, linguistic competence.

KIRISH

Bugungi ta'lim berish prinsiplarining markazida o'quvchining mustaqil fikrlashi, o'z fikrini isbot qilishi, unga mos ravishda asoslovchi dalillarni topishi maqsadga muvofiq. Bu esa har qanday ob'ektga insonning o'z nuqtai nafari bo'lishini, fikrlar rang-barangligini va, eng asosiysi, o'quvchida o'z fikrini isbotlash va himoya qilishni shakllantiradi. Ona tili darslarida borliqni anglashga o'rgatish tafakkur o'stirishni faollashtiradi, o'quvchilarning mustaqil mushohada madaniyatini rivojlantiradi, o'z fikrini dalillar bilan asoslay olishiga, bahslashish madaniyatining yuksalishiga ta'sir qiladi. Ta'lim oluvchining bilim, malaka, ko'nikmalarning zohir bo'lishi ona tilini mustahkam bilishi orqali yuzaga chiqadi. BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalariga doir Bitimida umumiy o'rta ta'lim maktablarda milliy madaniyat va mafkura, milliy ruh va qadriyatlar xazinasi, o'quvchida milliy, ijodiy, mustaqil tafakkurni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, ifodalovchi hamda boshqa fanlarning mukammal, puxta o'zlashtirilishiga asos bo'luvchi ona tili ta'limining innovatsion ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirilishiga muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shu bois dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilmiy markazlarida, til ta'limini o'qitishning nazariy va amaliy masalalari, ona tilini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o'qitishni tubdan yaxshilash yetakchi o'rinda turadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak".

Bunday muhim ijtimoiy vazifani bajarishda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9- sinflarida ona tili ta'limini, xususan, o'quvchilarning til va nutqqa doir ilmiy-nazariy bilim va amaliy malaka hamda ko'nikmalarini izchil, uzviy, mukammal, ijodiy va mustaqil o'zlashtirishga yo'naltiruvchi, muayyan tartib hamda qoidalarga asoslangan tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini yaratish, takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Uilyam Shekspir aytganidek, "Ko'rish va sezish bu mavjud bo'lmoqdir. Tafakkur qilish va mulohaza yuritish esa yashash demakdir".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim jarayonida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish, o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini o'stirish

masalalari Y.Abdullaev, N.Alavutdinova, A.Bobomurodova, N.Dadajonova, T.Ziyodova, N.Yo'ldosheva, M.Mirmaxsudova, H.Ne'matov, M.Omilxonova, N.Sattorova, Sh.Yusupova, N.Qosimova, A.G'ulomov; o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish masalalari D.Islomova, Q.Yo'ldoshev, S.Matchon, M.Mirqosimova, R.Niyozmetova B.To'xliiev, F.Egamberdieva, G.Eshchanova, Q.Husanboeva lar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.Q. G'ulomov ona tili darslarida ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, Sh.J.Yusupova ona tili ta'limida o'quvchilarning tafakkurini o'stirish, T.T. G'aniev mashq bajarish jarayonida o'quvchining bilish faolligini, T.U.Ziyadova o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, A.YA. Bobomurodova o'yin-topshiriqlardan foydalanish, M.S. Saidov tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari, A. Hamroev o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish masalalarini tadqiq etgan. MDH olimlaridan L.N. Landa, A.I. Vlasenkov, A.X. Jilenko, N.A. Lashkarova, V.I. Masalskiy, V.V. Matkin, M.I. Maxmutov, F.YA. Baykov, L.A. Venger, xorijlik olimlardan I. Jonson ijodiy ta'limni tashkil etish, Lars Yakob o'qituvchi va o'quvchi istiqbollari, Maria Bajasas ta'limda raqamli ijodkorlik, S. Demetriadis ona tili ta'limida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish masalalarini tadqiq etishgan.

Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Ularning lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay olish, fikrini aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligida mantiqiy mukammallikka erishish, "o'quvchi-ta'lim-o'qituvchi" munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Aynan ona tili va adabiyotdarslarida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlardan unumli foydalanish o'quvchilarning nutqiy muloqot, pragmatik, lingvistik, sotsiolingvistik kompetensilarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, o'ylash, fikr yuritish, muhokama qilishga undovchi muayyan tartib-qoidalarga asoslanadi. O'qituvchi ta'limda tafakkur o'stirish uchun o'quv-tarbiya jarayonida bir qancha vazifalarni bajaradi. Professor Sh.Yusupova o'quvchilarda tafakkur o'stirish uchun bir qancha tamoyillarga amal qilish zarur deb hisoblaydi.(1-rasm)



1-rasm. O'quvchilarda tafakkur o'stirish tamoyillari

NATIJALAR VA TAHLIL

Darhaqiqat, o'quvchini maqsadi sari intiladi – **ongli** ravishda bilim oladi ko'nikma va malakaga ega bo'ladi. Har bir inson o'ziga xos ruhiyatga ega - **rang-barang** tasavvur qiladi, fikrlaydi. Ijodiy tafakkur **faollikni** taqazo etadi. Muammoli o'qitish, ta'limda **ziddiyatli** holatlarni hosil qilish ta'lim oluvchining tezkor, optimal, kreativ fiklashini rivojlantiradi. SHaxsiy fikrini dalillash, isbotlash, **asoslash** tafakkurni o'stiruvchi mezonlar hisoblanadi. Hodisalar tushunchalar o'rtasidagi **sababiyatli** bog'lanishlar o'quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyatini, muammoni analiz-sintez qilish, tanqidiy yondashish, pirovard natijada, tafakkurni rivojlantiradi. Ona tili ta'limiga oid metodik adabiyotlarimizda o'quvchilarning tafakkurni rivojlantirish topshiriqlarini bajarishi o'zaro bog'liq 3 bosqichda amalga oshishi aytiladi:

1-bosqich – berilgan topshiriqni ongda o'ylash;

2-bosqich – tafakkur ostida yuzaga keltirish;

3-bosqich – ona tili ta'limida topshiriqni bajarish orqali natijaga erishish.

Turli metodik adabiyotlarni o'rganishlarimiz shuni ko'rsatdiki, ona tili va adabiyot darslarida tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: (2-jadval)

Didaktik talablar	Ilmiy-metodik talablar	Pedagogik-psixologik talablar
o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash	mavzularning uzviyligini, mazmunan yaxlitligini ta'minlash	tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarish jarayonida bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatini hisobga olish
o'quvchilarda ilmiy	topshiriqlarni aniq,	voqea-hodisalar mohiyatini

dunyoqarash va mantiqiy mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish;	izchil, tushunarli va ravon tilda bayon qilish	anglash qobiliyati va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga e'tibor berish
o'quv topshiriqlari mohiyatan qiziqarli, mazmunan aniq, lo'nda va qulay bo'lishi	o'quv topshiriqlarini belgilashda mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilish	ilmiy asoslangan ma'lumotlar bilan ishlash
topshiriqlarni ona tili va boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqligi va integratsiyasiga yo'naltirish;	kuzatilgan va idrok qilingan til hamda nutq hodisalaridan ilmiy xulosalar chiqarish	o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, nutqiy, kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish, savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlashga yo'naltirish

2-jadval. Tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlarga qo'yiladigan talablar

7-sinf "Ona tili" darsligida "Temir yo'llar" mavzusidan keyingi "Mustahkamlash" darsida quyidagicha topshiriq berilgan: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xodimlari tomonidan e'lon qilinadigan xabar matnini o'qing. Bunda operatorlarga xos ohang va uslubdan foydalaning.

"Diqqat, diqqat!!! Hurmatli yo'lovchilar, Fag'ona vodiysida kuzatilayotgan noqulay ob-havo sharoiti va tog'li hududlardagi kuchli yog'ingarchilik sababli, poezdlar harakat xavfsizligini hamda yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash maqsadida 2022-yil 5-may kuni Toshkent - Andijon - Toshkent yo'nalishida harakatlanadigan 60/59-sonli hamda 62/61-sonli yo'lovchi poezdlari harakati vaqtincha, ya'ni bir kunga to'xtatiladi".

Fikrimizcha, matnni "operatorlarga xos ohang va uslubdan foydalanib" o'qib berish topshirig'i o'quvchining og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, 7- sinf o'quvchisi uchun jo'n va osondir. Bu "Mustahkamlash" darsida o'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

Hurmatli o'quvchilar. Biz o'tgan darslarda "Temiryo'llar" mavzusi doirasida temiryo'llar tarixi, uning taraqqiyotdagi o'rni, jamoat transportidan foydalanish odobi; grammatik mavzu sifatida esa matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlari haqida fikr yuritdik. Bugungi darsimizda o'tilganlarni "Sayohatga chiqamiz" mavzusi orqali mustahkamlaymiz. Darsimiz avvalida kichik guruhlariga bo'linamiz. O'quvchilar rangli kartochkalarni tanlash yoki

boshqa usullar yordamida kichik guruhlariga bo'linadilar. Quyidagi mavzular guruhlar e'tiboriga havola qilinadi:

1.Toshkentga sayohat. 2. Buxoroga sayohat. 3. Samarqandga sayohat.

O'quv topshirig'i yanada qiziqarli, bahs va munozaralarga boy bo'lishi, o'quvchilar tasavvuri va tafakkurini yanada jonlantirish, ishtiyoqni kuchaytirish uchun quyidagi variantlardan bir tanlanadi:

A. Sayohatga oilamiz bilan chiqamiz.

B. Sayohatga do'stlarimiz bilan chiqamiz.

- Aziz o'quvchilar, bir jihatga e'tibor bering: sayohat davomida manzilga faqat temiryo'llar orqali boramiz. Guruhlar quyidagi savollarga javob beradilar:

- Tasavvur qiling. Siz sayohatni yakunladingiz. Sayohatingiz davomida sizga yoqqan taassurotlaringiz bilan o'rtoqlashing. Fikrlaringizni namoyish usulida (prezentatsiya) bayon qilasiz. Turli rasmlar, yo'l xaritalari, jadvallar chizsangiz, baholashda qo'shimcha ballarni qo'lga kiritasiz. Siz tanlagan shakldagi sayohatning afzalliklari va kamchiliklari nimada deb o'ylaysiz?

O'quvchilar javoblarida qaerga, kim bilan, necha kunga borganlari, diqqatga sazovor joylar – muzeylar, bog'lar kabilar haqida ma'lumot beradilar. Sayohat manzilini O'zbekiston xaritasidan ko'rsatib bersalar, o'quvchilarning geografiya fanidan olgan bilimlari yanada mustahkam bo'ladi. Yurtimiz xaritasini yanada mukammal bilib oladilar. Mustahkamlash darsining "Sayohatga chiqamiz" mavzusi o'quvchilarga avvaldan e'lon qilinsa, dars yanada qizg'in bo'ladi. Guruhlar o'rtasidagi sog'lom raqobat, g'oliblikka intilish tufayli ta'lim oluvchilar sayohat manzillari haqidagi ma'lumotlarni izlaydilar, rasmlar, jadvallar, xaritalar chizadilar. Fantaziya- tasavvurlarini ishga soladilar: oilasi yoki do'stlar davrasidagi sayohatlarini eslaydilar yoki orzu qiladilar. Yoqimli hislar ularga motivatsiya beradi. Guruhdoshlari bilan muloqot va munozara jarayonida o'z fikrlarini bayon etish, asoslash, qat'iyatga o'rganadilar.

XULOSA

Ona tilini o'qitishda nafaqat grammatik bilim berish, balki mohiyat va hodisani anglatish ham zarur ishlarimizdan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki mohiyatni hodisadan ajrata bilish jarayonida kishining tasavvuri keng, to'g'ri va aniq bo'ladi, ijodiy, tanqidiy, kreativ fikrlaydi, tafakkuri yanada rivojlanadi. Shuningdek, nazariya va amaliyot birligi ham amalga oshadi. O'quvchi fikrlarini bir-biriga bog'lashda har bir narsa – hodisalarning mohiyatini bilish, ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalana olishi tafakkur va nutq rivoji uchun imkoniyat bo'lib hisoblanadi.

"Maktab voyaga etayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustoxonasidir. Agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mahkam tutmog'ing lozim", - degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus.

Demak, ona tili fanini o'qitishda tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning til va nutqqa doir ilmiy-nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish asosida mustahkamlash, boyitish, rivojlantirish, ta'lim oluvchilarning kommunikativ, pragmatik, sotsiologik, jumladan, lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan katta ilmiy-metodik ahamiyatga ega. O'quv topshiriqlarini shaklan va mazmunan takomillashtirib borish til ta'limi samaradorlik darajasining o'sishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari // O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri L.Saidova. – T.: Adolat, 2004. – B. 19–62.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 2019, 29.04.
3. Prezident Shavkat Mirziyoevning "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda"gi nutqi // <https://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyoevning-uzbek-tiliga-davlat-tili-ma-o-21-10-2019>.
4. To'xliiev B, M. Shamsieva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2010. – B. 183.
5. Hamroev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Ped. fanl. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2020. – B. 242.
6. Musaev J.P. O'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari. –T.: 2022, 248 b
7. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.
8. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning falsafiy asoslari. "Fan" nashriyoti. T.: 2004
9. Turaboeva M, Жамият ва инновациялар – 07 (2022) / ISSN 2181
[//inscience.uz/index.php/socinov/index](http://inscience.uz/index.php/socinov/index)
10. Юсупова III. Тил таълими ва фалсафа (монг). – Т: Мумтоз сўз, 2009.